O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biri" Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida ta'kidlaydiki, "Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta'limni kambag'allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz. Mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to'pladi – ta'lim tizimi tubdan o'zgarmoqda. O'tgan olti yilda maktabgacha ta'limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030 yilga qadar har bir bolaning bog'chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o'quvchining biri esa oliygohda o'qishi uchun imkoniyat yaratiladi"[1].

Bugungi kunda jahonda inson kapitali rivoji nafaqat iqtisodiyot, balki butun jamiyatning yangi sifatini shakllantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Jahon bankining tadqiqot natijalariga ko'ra, o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda o'sishning 64 foizi inson kapitalining sifatiga bog'liqligi qayd etilgan, AQSHda bu ko'rsatkich 76 foizni, Yevropa davlatlarida esa 74,2 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotda, inson kapitali rivoji uchun sarflangan har bir dollar kelgusida mamlakatga 3-6 dollar foyda keltirishi ta'kidlab o'tilgan[2].

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, ayniqsa, so'nggi 7-yilda Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi hisoblanmish 2022–2026-yilgi Taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida O'zbekistonda inson kapitalini yuksaltirish, jumladan ta'lim va ilm-fanni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, aholini, ayniqsa yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratish va salomatligini mustahkamlash, madaniy va ma'rifiy ongini yuksaltirish bo'yicha qator ishlar amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlar uchun davlat budjetidan sarf etiladigan xarajatlar 4,3 baravarga oshirildi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi URL: https://president.uz/uz/lists/view/6677
2 Inson kapitaliga sarmoya – mustaqil davlatning taraqqiyoti garovi URL: https://strategy.uz/index.php?news=1599

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'lim sohasi va uning inson kapitalini shakllantirishdagi roli bir nechta xorijiy va mamlakatimiz olimlarining tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, L.S. Draganchuk, G.S. Abduraxmanova, N.V. Parshina, L. Nesterov, G. Ashirova, Th.W. Schultz, L. Thurow, Ben-Porath, K. Griffin, J. Knight, E. Duflo, A.I. Dobrinin, S.A. Dyatlov, Y.D. Sirenova, G.Q. Abduraxmonova, D.J.Rustamov, B.N. Navro'z-Zodaning ilmiy tadqiqotlari inson kapitalini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarini sanab o'tish mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada monografik tahlil usuli, qiyosiy tahlil usuli, tizimli tahlil usulidan foydalangan holda ta'lim bosqichlariga izoh berilgan. Guruhlash usulidan foydalanib, ta'lim bosqichlarining inson kapitalini shakllanishidagi roli o'rganilgan. Mazkur usullarni qo'llash evaziga maqolaning samaradorligi va amaliy tavsiyalarining natijadorligini ilmiy asoslash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim sohasi davlatning kelgusidagi rivoji va taraqqiyoti uchun xizmat qilishini inobatga olib ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun bundan 27 yil avval qabul qilingan. Qonun loyihasini takomillashtirish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining mas'ul qo'mitalari hamda ishchi guruhlari tomonidan bir necha bor muhokamalar o'kazildi. Natijada yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni mazkur Qonunni imzolashi bilan, amalda bo'lgan 1997-yil 29-avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonunlar o"z kuchini yo'qotdi.

O'zbekistonda maktabda o'qish majburiy hisoblanadi. Ta'lim tizimi yagona va uzluksiz bo'lib, ta'lim turlariga ko'ra quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim[3].

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta'lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta'lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi farmoniga muvofiq, maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vazirlik Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Bog'chalar qurish va ta'mirlash, ilg'or tarbiya uslublari va metodikalarini joriy etish bo'yicha ko'p ishlar boshlandi.

Bugungi kunda O'zbekistonda jami 33 942 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda[4]. Jami maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 6780 tasi davlat bog'chalari, 27 162 tasi esa nodavlat tashkilot hisoblanadi.

Respublikadagi 3−7 yoshli bolalar soni 2 mln 930 ming 844 nafarni tashkil etmoqda. Shulardan 74 foizi, ya'ni 2 mln 169 ming 538 nafari bog'chaga boradi.

Maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan 661 945 nafar (93 foiz) 6 yoshli bolalarning 170 721 nafari 7490 ta boshlang'ich ta'limga bir yillik bepul majburiy tayyorlov guruhlariga, 457 008 nafari 9031 ta to'liq kunlik tayyorlov guruhlariga, 33 429 nafari 1337 ta qisqa muddatli tayyorlov guruhlariga, 787 nafari mobil guruhlarga qamrab olindi.

Ushbu ko'rsatkich (6 yosh):

- Navoiy viloyatida – 95,2 foiz;
- Sirdaryo viloyatida – 93,9 foiz;

---

3 https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_ta%CA%BClim

4 AOKAda o'tgan brifingda Maktabgacha ta'lim agentligi axborot xizmati rahbari Mavluda Asqarxo'jayeva tizimdagi ishlar haqida ma'lumoti. (https://t.me/mdokanal/10457)

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Buxoro viloyatida – 93,4 foiz;
- Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida – 93 foiz;
- Toshkent shahri va viloyati hamda Xorazm viloyatida – 92,8 foiz;
- Andijon va Jizzax viloyatlarida – 93,2 foiz;
- Namangan va Qashqadaryo viloyatida – 92,9 foiz;
- Samarqand viloyatida – 92,5 foizni tashkil etadi.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim umumta’lim o‘quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga qaratilgan. Umumiy o‘rta ta’lim I – XI sinflar bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang‘ich ta’lim I – IV sinflar;
- tayanch o‘rta ta’lim V – IX sinflar;
- o‘rta ta’lim X – XI sinflar.

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o‘rta ta’lim doirasida VII sinfdan so‘ng ta’lim oluvchilarda kasblar bo‘yicha birlamchi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha choralar amalga oshiriladi.

O‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar o‘zlashtirilishini, shuningdek, ta’limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta’minlaydi[5].

“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi”, degan ezgu g‘oya asosida bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda yuzlab zamonaviy maktablar barpo etildi. Prezident maktablari, ijod maktablari hayotimizga kirib keldi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘i kengaytirildi. Yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratildi. O‘qituvchi va murabbiylarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, o‘tgan davrda muallimlarning oylik ish haqi o‘rtacha 2,5 baravar oshdi[6]. 11 yillik majburiy maktab ta’limi qayta tiklandi, maktab o‘qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi, shuningdek, ta’lim sohasi vakillarining oylik maoshi qariyb 4 baravarga oshirildi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta’minlash tizimi joriy etildi.




1-rasm: O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari soni[7]

2022–2023-o‘quv yilida 2018/2019-o‘quv yiliga nisbatan faoliyat yuritayotgan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari soni 7,7 % ga oshgan. Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023/2024-o‘quv yili boshida umumiy o‘rta

5 Ta’lim to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (https://lex.uz/docs/-5013007).
6 Maktablarda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilandi (https://president.uz/oz/lists/view/6622).
7 stat.uz-O‘zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi (https://stat.uz/images/umumiy-orta-talim_15_03_2023_uz.pdf).

ta'lim tashkilotlari soni 10 750 tani tashkil yetgan[8]. Hududlar kesimida 2022–2023-o'quv yili boshida eng ko'p umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni Samarqand 1310, Qashqadaryo 1220, Farg'ona viloyati 1026, Surxondaryo viloyati 953 va Toshkent 907 taga to'g'ri keladi (2-rasm).




2-rasm: Hududlar kesimida O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni[9]

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich professional ta'lim;
- o'rta professional ta'lim;
- o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi[10].

2020–2021-o'quv yilidan boshlab O'zbekistonda boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimida tegishli ta'lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlardan iborat professional ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi. Texnikumlarda umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarga kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqgan holda 2 yildan kam bo'lmagan muddatda kunduzgi, kechki va sirtgi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida ta'lim beriladi.

Respublikamizda 2022-yil oxirida professional ta'lim muassasalari soni jami 704 tani tashkil etdi. Shundan 330 tasi kasb-hunar maktabi, 166 tasi kollej, 208 tasi esa texnikum[11].

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida 3 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida 1 yil bo'lgan oliy ta'limdir.

8 https://uzreport.news/society/2023-2024-o'quv-yili-boshiga-umumiy-o-rta-ta-lim-tashkilotlari-soni-10-750-tani-tashkil-et.
9 stat.uz-O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi (https://stat.uz/images/umumiy-orta-talim_15_03_2023_uz.pdf).
10 Ta'lim to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni (https://lex.uz/docs/-5013007) .
11 https://baxtiyor.uz/ozbekistonda-professional-talim-muassasalari-soni-nechta-2022-yil.




3-rasm: O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari soni[12]

O'zbekistonda 2024-yilda oliy ta'lim muassasasi soni jami 224 taga yetgan. 224 ta OTMdan 121 tasi davlat, 75 tasi nodavlat, 28 tasi esa xorijiy oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Hozirda 224 ta oliygohda 41 mln 289 ming nafar talaba tahsil oladi. Quyidagi oliygohlardan 110 ta universitet, 66 ta institut, 40 ta filial 8 tasi shaklida faoliyat yuritadi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.




4-rasm: O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari turi[13]

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi[14].

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi[15].

12 https://stat.edu.uz/
13 https://stat.edu.uz/
14 (https://simple.wikipedia.org/wiki/Doctor_of_Philosophy)
15 (https://en.wikipedia.org/wiki/Doctor_of_Science)

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

O'zbekistonda yangicha fikrlaydigan kadrlarni tayyorlash tizimini rivojlantirishda ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari yordam bermoqda, talimning barcha yo'nalishlari bo'yicha ko'plab yirik qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

1-jadval: O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan xorijiy texnik yordam hajmi[16]

| № | Xorij donor hukumatlari va tashkilotlari | Xorijiy texnik yordam hajmi |
|---|---|---|
| 1 | Osiyo taraqqiyot banki | 290 million dollar |
| 2 | Janubiy Koreya hukumati | 110 million dollardan ortiq |
| 3 | Jahon banki | 33 million dollar |
| 4 | OPEK fondi, Saudiya fondi, Islom taraqqiyot banki | 42 million dollar |
| 5 | Germaniya hukumatining "KfV" banki | qariyb 20 million dollar |
| 6 | Boshqa xorijiy donorlar | 100 million dollardan ortiq |

Ammo ta'lim jarayoniga ajratiladigan mablag'ning iqtisodiy samarasi hamma vaqt ham bir xil emas. Ba'zi faktorlar buni pasaytiradi:

- ta'lim sifati past bo'lsa;
- ta'lim jarayonida olingan bilim va ko'nikmalar bozor talabiga javob bermasa;
- mamlakatning iqtisodiy o'sishi past bo'lsa, jamlangan inson kapitaliga talab kam bo'ladi. Natijada ta'lim sohasidagi inson kapitalidan to'la foydalanilmaydi va ular kerakli darajada taqdirlanmaydi;
- mehnatga to'lanadigan haqda ma'lumot darajasi yuqori va pastligiga qaramay (masalan, fan doktori, professor va assistent, katta o'qituvchi) orasida farq kam bo'lib, daromadlari tenglashtirilsa.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelib takliflar beriladi:

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida inson kapitali umumiy milliy zaxirasining ahamiyati katta. Eng avvalo inson kapitali mamlakat iqtisodiyotining texnikaviy yangiliklarni qabul qila olish va foydalanish qobiliyatini belgilaydi.

Ko'p mamlakatlar ta'lim sohasi xizmatlarini joriy etishga faol qatnashmoqdalar. Mamlakatning ta'lim sohasiga mablag' ajratishi inson kapitali milliy zaxirasini ko'payishiga e'tiboridan dalolat beradi. Ta'lim sohasiga ajratiladigan mablag': daromadi darajasi past mamlakat 3,4%, daromadi o'rtasi bo'lgan mamlakat 4,4%, yuqori daromadli mamlakatlar 5,6%. Aholi jon boshiga daromadning ozligi inson kapitaliga investitsiya ajratishga imkon bermaydi. Bu esa mamlakatning qashshoqlanishiga sabab bo'ladi.

Mamlakatga ta'limga ajratiladigan xarajatlar turlicha. Ba'zi mamlakatlarga ta'limga davlat ko'proq mablag' ajratsa, boshqasiga shaxsiy xarajatlar ko'proqdir. Daromadi past mamlakatlardan Shri Lanka ta'limga xarajat 20% shaxsiy sektor, Uganda va Vetnam 60%, Shveystariyada 50%ga yaqinini tashkil etadi. Ko'p mamlakatlarda boshlang'ich va ba'zan o'rta ma'lumot olishni davlat bepul amalga oshiradi. Chunki fuqarosi o'qish, yozishni bilsa, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol qatnashadi.

16 Tadqiqotchining statistik ma'lumotlar tahlili natijasi ishlanmasi

Oliy o‘quv yurtlarida davlat va xususiy bo‘lsa ham ko‘pincha o‘qish uchun pul beradi. Oliy o‘quv yurtlarini tugatganlarga foydaning ko‘pi qoladi, chunki ularning oliy ma’lumotli bo‘lganligi uchun oyligi ko‘p bo‘ladi.

Kasb-hunar kollejlari, kasbiy ta’limda ish beruvchilarga ko‘pincha mablag‘ ajratadilar. Davlat ish beruvchilar bilan ikki sabab bilan hamkorlik qiladi:

1. Kasbiy ta’lim uchun ish beruvchilarning mablag‘ ajratishi davlat mablag‘larini iqtisod qiladi.
2. Kasbiy tayyorgarlik bozor talablari bilan qay darajada uyg‘un.

Boshlang‘ich ta’lim bolalarga o‘qish, yozish, hisoblashning asosiy ko‘nikmalarini beradiki, ular kelgusida ma’lumotli bo‘lishiga yordam beradi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, qiz-ayollarni boshlang‘ich ma’lumotli bo‘lishi ularning oila a’zolarining sog‘ligining yaxshi bo‘lishi, bola sonini kamayishi, bolalar o‘limining kamayishiga olib keladi.

Rivojlangayotgan davlatlarda kichik maktab yoshli bolalar sonini tez o‘sishiga qaramay oxirgi 25 yilda boshlang‘ich maktabga qabul qilish koeffisiyentini tez o‘sishiga erishildi. Ammo hali ham juda og‘ir ijtimoiy ahvoldan maktabga borolmaydigan bolalar holati mavjud. Shuningdek, shahar maktablaridagi sharoit bilan qishloq maktablari keskin farq qiladi. Iqtisodiy ta’minlangan oilalar bolalari va o‘g‘il bolalarga o‘qishga imkoniyat ko‘proq. Qiz bolalarning o‘g‘il bolalardan kamroq boshlang‘ich ta’lim olish Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq, Afrika – Sahroyi Kabirning janubrog‘ida namoyon bo‘ladi. Natijada rivojlanayotgan davlatlarda 900 mln. katta yoshli aholi savodsiz, ularning 2-3 ayollardir.

Shuningdek, qashshoqlik natijasida bolalar mehnati ham ta’lim olishga ta’sir etadi. O‘rta ta’lim olish darajasi boshlang‘ich ta’limga nisbatan ozdir. Daromadi past va o‘rtacha bo‘lgan mamlakatlarda 60% bolalar o‘rta maktabga boradilar. Daromadi yuqori bo‘lgan mamlakatlar aholisining barchasi o‘rta ma’lumotni oladi.

Oliy ma’lumotli bo‘lishda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining farqi katta. Ta’limning boshlang‘ich bosqichida olingan bilim va ko‘nikmalar inson kapitaliga keyingi investitsiyalar samaradorligini oshiradi va turli sohalarda muvaffaqiyatli faoliyatini ta’minlaydi. Oliy ta’lim tizimi maxsus ixtisoslik bo‘yicha bilim va ko‘nikma beradi. Bakalavr, magistrlik diplomi, ilmiy darajalarni olish insonga ma’lum mehnat bozorida reputastiya beradi. Uning eng asosiy funkstiyasi umumiy madaniy kapitalning rivoji, bu keyingi ixtisoslik faoliyati va rivojiga universal asos bo‘ladi. Makro masshtabda yuqori ma’lumotli ishchi kuchi mamlakatning inson salohiyatini tashkil etadi. Demak, ta’lim inson kapitali ishlab chiqarish asosiy tarmog‘i, butun jamiyat va inson farovonligining poydevoridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Ta’lim to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.
2. Абдурахмонова Г.Қ., Рустамов Д.Ж. “Инсон капиталини рақамли иқтисодиёт асосида ривожлантириш йўналишлари”. Монография. – Beau Bassin: “GlobeEdit” Publisher, 2020. – 16 б.
3. Ben-Porath. The Production of Human Capital and the Life Cycle of Earnings. – N.Y.; – L, 1970. –P.49.
4. Griffin K., Knight J., ul Haq. “Human Development in the 1980s and Beyond.” Journal of Development Planning 19 (Special number) (1989).
5. Добрынин А.И., Дятлов С.А., Цыренова Е.Д. Человеческий капитал в транзитивной экономике: формирование, оценка, эффективность использования. – СПб.: Наука, 1999. – С. 31.
6. Navro‘z-Zoda B.N. Barkamol avlodning iqtisodiy salohiyatini shakllantirish. Buxoro Davlat universiteti ilmiy axboroti, 2-son, 2010 y. 32-38.
7. Navruz-Zoda B. N., Shomiev G. U. The different approaches of human capital formation //International Journal of Innovative Technologies in Economy. – 2017. – №. 5 (11). – С. 6-10.
8. Навруззода Б. Н., Навруззода Л. Б. Предпринимательская концепция формирования и развития человеческого капитала //Современная наука. – 2014. – №. 1. – С. 21-25.
9. Навруз-Зода Б. Н., Шомиев Г. У. Исторические предпосылки развития теории человеческого капитала //Academy. – 2016. – №. 11 (14). – С. 19-21.
10. Навруз-Зода Л. Б., Навруз-Зода З. Б. Повышение социального престижа предпринимательских фирм в Бухарской области //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 11 (95). – С. 21-25.
11. Schultz Th. W. Inwestmentin Human Capital. The Role of Edication and Researsch / Th. W. Schultz. NY: The Free Press, 1971. –272 p.
12. Thurow L. Investment in Human Capital. Belmont, 1970. P. 86.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi URL: https://president.uz/uz/lists/view/6677
14. Inson kapitaliga sarmoya – mustaqil davlatning taraqqiyoti garovi URL: https://strategy.uz/index.php?news=1599
15. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_ta%CA%BClim
16. AOKAda o‘tgan brifingda Maktabgacha ta’lim agentligi axborot xizmati rahbari Mavluda Asqarxo‘jayeva tizimdagi ishlar haqida ma’lumoti. (https://t.me/mdokanal/10457)
17. Maktablarda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilandi (https://president.uz/oz/lists/view/6622)
18. stat.uz-O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi (https://stat.uz/images/umumiy-orta-talim_15_03_2023_uz.pdf)

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar maʼsul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi maʼlumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan.